# Namangan viloyati statistika boshqarmasi

## 2017 yil yanvar- dekabr oylarida
# INVESTITSIYA FAOLIYATI

Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida nomoliyaviy aktivlarga yo‘naltirilgan jami investitsiyalar xajmi 3089,0 mlrd.so‘mni tashkil etgan bo‘lib, shundan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar 3052,0 mlrd.so‘mni tashkil qildi va o’sish sur’ati o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 103,7 foizni tashkil etdi.

### Nomoliyaviy aktivlarga investitsiyalar

(mln.so’mda)

| | Jami | Shu jumladan | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | Asosiy kapitalga inves-titsiyalar | Asosiy vositalarning kapital ta’mirlash | | | Intellektual mulk ob’ektlariga investitsiyalar | Ishlab chiqarilmagan nomoliyaviy aktivlarga investitsiyalar |
| | | | Jami | Ulardan bino va inshootlarni | | | |
| | | | | Jami | ulardan: xujalik usulida | | |
| **Asosiy kapitalga investitsiyalar** | **3088981,3** | **3051995** | **36927,3** | **32995,4** | **439,8** | **59,0** | |
| *shu jumladan mulkchilik shaklari bo‘yicha:* | | | | | | | |
| Davlat | 658668,4 | 627429,1 | 31239,3 | 31083,0 | | | |
| Nodavlat | 2430312,9 | 2424565,9 | 5688,0 | 1912,4 | 439,8 | 59,0 | |

## Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarni mablag‘ manbalari bo‘yicha taqsimlanishi

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar 3052,0 mlrd.so‘mni tashkil qilib, shundan 115,5 mlrd.so‘mi respublika budjeti mablag‘ariga to‘g‘ri kelib, ushbu raqam o‘tgan yili shu davrda 59,5 mlrd.so‘mni tashkil qilgan. Korxona (mahalliy) budjet mablag‘lari joriy yil yanvar-dekabrda 516,6 mlrd.so‘mni o‘tgan yil shu davrda 461,2 mlrd.so‘mni tashkil qilgan. Aholi mablag‘lari 771,0 mlrd.so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, o‘tgan yili shu davrda 717,6 mlrd.so‘mni tashkil qilgan. Chet e investitsiyalari va kreditlari o‘tgan yil 639,1 mlrd.so‘mni takil etgan bo‘lsa, ushbu yil yanvar-dekabrda 1088,4 mlrd.so‘mni tashkil qilgan. Budjetdan tashqari fond mablag‘lari esa 119,7 mln.so‘mni , o‘tgan yil shu davrda 188,5 mlrd.so‘mni tashkil qilgan.

**Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarni mablag‘ manbalari bo‘yicha taqsimlanishi**

(mlrd.so’da)




## 2017 yil yanvar-dekabrda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi

2017 yilning yanvar-dekabrda asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar jami 3052,0 mlrd.so’mni tashkil etdi. Shundan qurilish montaj ishlariga 1907,6 mlrd.so‘m mablag‘

o‘zlashtirilib, jami o’zlashtirilgan investitsiyalarning 62,5 foizni tashkil etdi. Mashina, asbob-uskunalarga 865,0 mlrd.so‘m o‘zlashtirilib, jamiga nisbatan 28,3 foizni tashkil qildi. Boshqa kapital ishlar va sarflarga 279,4 mln.so‘m mablag‘ o‘zlashtirilib, jamiga nisbatan 9,2 foizni tashkil etdi.

**2017 yil yanvar-dekabrda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi (mlrd.so’mda)**




**Moliyalashtirish manbalariga ko‘ra asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar**

| Moliyalashtirish manbalari | 2017 yil yanvar-dekabr | | 2016 yil | |
|---|---|---|---|---|
| | Jami investitsiya mlrd.so‘m | Jamiga nisbatan %da | Jami investitsiya mlrd.so‘m | Jamiga nisbatan %da |
| **Barcha manbalar xisobidan** | **3052,0** | **100,0** | **2555,2** | **100,0** |
| **Markazlashgan investitsiya jami:** | **1233,9** | **40,4** | **762,4** | **29,8** |
| **ulardan Respublika budjeti** | 115,5 | 3,8 | 59,5 | 2,3 |
| **Budjetdan tashqari fond mablag’lari** | 119,7 | 3,9 | 188,5 | 7,4 |
| **Xukumat kafolati ostidagi chet el investitsiyalari va kreditlari** | 998,7 | 32,7 | 514,4 | 20,1 |
| **Markazlashmagan investitsiya jami:** | **1818,1** | **59,6** | **1792,8** | **70,2** |
| **ulardan korxona tashkilot mablag‘lari** | 516,6 | 16,9 | 461,2 | 18,0 |
| **bank kreditlari** | 440,8 | 14,4 | 489,2 | 19,1 |
| **to‘g‘ridan-to‘g‘ri chet el investitsiyasi va krediti** | 89,7 | 2,9 | 12,5 | 4,9 |
| **aholi mablag‘lari** | 771,0 | 25,3 | 717,6 | 28,1 |

Joriy yil yanvar-dekabr oylarida moliyalashtirishning barcha manbalari bo‘yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar xajmi 3052,0 mlrd so‘mni tashkil qilib, markazlashgan investitsiyalar 1233,9 mlrd.so‘mni yoki jami investitsiyalarning 40,4 foizini markazlashmagan investitsiyalar esa 1818,1 mlrd.so‘mni tashkil qilib, jami investitsiyalarning 59,6 foizini tashkil qilgan.

Xukumat kafolati ostidagi chet el investitsiyalari va kreditlari 998,7 mlrd.so‘mni tashkil qilib, jami investitsiyadagi ulushi 32,7 foizni tashkil qildi. Korxona va tashkilot mablag‘lari 516,6 mlrd.so‘mni tashkil qilib, jami investitsiyaning 16,9 foizini, aholi mablag‘lari 771,0 mlrd.so‘m bo‘lib, jami investitsiyaning 25,3 foizini tashkil qildi.

**2017 yil yanvar-dekabr oylarida korxonalar turlari bo‘yicha investitsiyalarning taqsimlanishi**

| **Viloyat** | **Jami** | **Yirik tashkilotlar** | | **Notijorat tashkilotlari** | **Kichik biznes va formal bo‘lmagan sohalar** | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | mlrd.so‘m | O‘tgan yil mos davrga nisbatan %da | mlrd.so‘m | mlrd.so‘m | O‘tgan yil mos davrga nisbatan %da | jamiga nisbatan % da |
| **Namangan** | **3052,0** | **1727,2** | **121%** | **36,3** | **1288,5** | **87,9** | **42,2** |

2017 yil yanvar-dekabr oylarida viloyatda jami 3052,0 mlrd.so‘m investitsiya o‘zlashtirilgan bo‘lib, shundan 1727,2 mlrd.so‘mi yoki jamiga nisbatan 56,6 %i yirik korxonalar hissasiga, 36,3 mlrd.so‘mi yoki jamiga nisbatan 1,2 % notijorat tashkilotlariga va 1288,5 mlrd.so‘mi yoki jamiga nisbatan 42,2 %i kichik biznes va formal bo‘lmagan sohalar (yakka tartibdagi turar va noturar joylar)ga to‘g‘ri kelgan.